O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	



OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI

Nishonov Dilshod Shamsidinovich

Ta'lim kontenti va multimedia mahsulotlarini yaratish markazi direktori,

Marketing kafedrası dotsenti, PhD

ORCID: 0009-0001-7277-5249

d.nishonov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida raqobatbardoshlikni ta'minlash masalasi va uning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi oliy ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Maqolada raqobatbardoshlik tushunchasining nazariy asoslari yoritilib, uning ta'lim sifati bilan uzviy bog'liqligi ilmiy manbalar asosida asoslab beriladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining reytinglari, ta'lim xizmatlari bozori, kadrlar tayyorlash sifati va innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari raqobatbardoshlikning muhim omillari sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot jarayonida tahlil, taqqoslash, mantiqiy umumlashtirish va tizimli yondashuv usullaridan foydalanilgan. Xorijiy va milliy tajriba tahlili asosida oliy ta'lim muassasalarida raqobat muhitini kuchaytirish ta'lim dasturlarini yangilash, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda talabalar ehtiyojlariga mos ta'lim xizmatlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, raqobatbardoshlik, ta'lim sifati, oliy ta'lim muassasalari, bilimlar iqtisodiyoti, inson kapitali, akademik raqobat, ta'lim xizmatlari bozori, o'quv jarayoni sifati, professor-o'qituvchilar salohiyati, innovatsion ta'lim, raqamli ta'lim texnologiyalari, ta'lim dasturlari.

Abstract. This article analyzes the issue of ensuring competitiveness in the higher education system and its role in improving the quality of education on the basis of an integrated approach. The main purpose of the study is to identify mechanisms for improving the effectiveness of the educational process by forming a healthy competitive environment between higher education institutions. The article covers the theoretical foundations of the concept of competitiveness, and its inextricable relationship with the quality of education is justified on the basis of scientific sources. Also, the ratings of higher education institutions, the market for educational services, the quality of training and indicators of innovative activity are considered as important factors of competitiveness. In the research process, methods of analysis, comparison, logical generalization and systematic approach were used. On the basis of the analysis of foreign and national experience, strengthening the competitive environment in higher education institutions has been found to have a positive impact on the renewal of educational programs, improving the qualifications of professors, the introduction of digital technologies and the development of educational services suitable for the needs of students.

Key words: Higher Education, competitiveness, quality of Education, Higher Education Institutions, knowledge economy, human capital, academic competition, educational services market, educational process quality, faculty capacity, innovative education, digital education technologies, educational programs.

Аннотация. В данной статье анализируется вопрос обеспечения конкурентоспособности в системе высшего образования и ее роль в повышении качества образования на основе комплексного подхода. Основная цель исследования-выявление механизмов повышения эффективности образовательного процесса путем формирования здоровой конкурентной среды между высшими учебными заведениями. В статье освещаются теоретические основы понятия конкурентоспособности и обосновывается его неразрывная связь с качеством образования на основе научных источников. Также важными факторами конкурентоспособности рассматриваются рейтинги высших учебных заведений, рынок образовательных услуг, качество обучения и показатели инновационной деятельности. В процессе исследования использовались методы анализа, сравнения, логического обобщения и системного подхода. На основе анализа зарубежного и национального опыта установлено, что усиление конкурентной среды в высших учебных заведениях оказывает положительное влияние на обновление образовательных программ, повышение квалификации преподавателей, внедрение цифровых технологий и развитие образовательных услуг, соответствующих потребностям студентов.

Ключевые слова: Высшее образование, конкурентоспособность, качество образования, высшие учебные заведения, экономика знаний, человеческий капитал, академическая конкуренция, рынок образовательных услуг, качество учебного процесса, потенциал преподавателей, инновационное образование, цифровые образовательные технологии, образовательные программы.



KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga va xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizning hududlarida yangi davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari, masofaviy va kechki ta'lim shakllarining ochilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi. Jumladan, oliy ta'limda fanlarni o'qitishda mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta'lim tizimi texnologiyasini, uning vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o'qitishni jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori [1] va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-sonli qarori [1] hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-76-sonli Farmonida [1] bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta'minlashga to'siq bo'layotgan bir qator muammolar borligi ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida PF-158-sonli Farmonida [1] ham oliy ta'lim tizimini rivojlantirish uchun bir qator ustuvor vazifalar belgilab qo'yilgan.

Oliy ta'lim raqobatbardoshligi tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, u nafaqat ta'lim dasturlarining mazmuni va sifati, balki ta'lim muassasasining boshqaruv tizimi, ilmiy-tadqiqot salohiyati, moddiy-texnik bazasi, raqamli infratuzilmasi va xalqaro maydondagi nufuzini ham qamrab oladi. Raqobatbardosh oliy ta'lim muassasalari talabalar uchun bilim olish jarayonini samarali tashkil etish, mustaqil fikrlash va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratishga intiladi. Aynan shunday muhitda ta'lim sifati yuqori bo'lib, bitiruvchilar zamonaviy kasbiy kompetensiyalarga ega bo'ladi hamda mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladi.

Ta'lim sifatini oshirish masalasi bugungi kunda nafaqat ta'lim muassasalari, balki davlat, ish beruvchilar va jamiyat manfaatlarini bilan ham chambarchas bog'liqdir. Chunki oliy ta'lim sifati mamlakatning innovatsion rivojlanish sur'atlari, iqtisodiy raqobatbardoshligi va ijtimoiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini kuchaytirish orqali ta'lim sifatini oshirish masalasi kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Bunda ta'lim standartlarini takomillashtirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish va talabalar bilimini baholashning shaffof mexanizmlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, oliy ta'lim raqobatbardoshligini ta'lim sifatini oshirish omili sifatida o'rganish ilmiy jihatdan ham dolzarbdir. Chunki zamonaviy sharoitda oliy ta'lim tizimining rivojlanishi ko'plab ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanmoqda. Global ta'lim bozorida kuchayib borayotgan raqobat, xalqaro reytinglar va akkreditatsiya tizimlari oliy ta'lim muassasalaridan doimiy ravishda sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashni talab etmoqda. Bu esa oliy ta'lim raqobatbardoshligi va ta'lim sifati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi va ta'lim sifatini oshirish masalasi bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarda katta ahamiyat kasb etmoqda. G.Borshevskiy o'zining "Davlat-xususiy hamkorlik" asarida ta'lim muassasalarining samaradorligini oshirish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik modelini batafsil tahlil qiladi. Muallifning ta'kidlashicha, oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardoshlikni oshirishning samarali vositalaridan biri bu resurslarni optimallashtirish va innovatsion loyihalarni joriy qilishda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishdan iborat [2]. G.Borshevskiyning fikricha, bunday hamkorlik ta'lim sifati va ilmiy-tadqiqot salohiyatini sezilarli darajada oshiradi hamda talabalar tayyorlash jarayonini iqtisodiy va pedagogik jihatdan samarali qiladi.

Shuningdek, J.Sherov va X.Normamatov [3] oliy ta'lim muassasalarida boshqaruvning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish ta'lim sifatini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlashadi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari o'quv jarayonini monitoring qilish, resurslardan samarali



foydalanish va talabalar faoliyatini baholash imkonini beradi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardosh muhitni shakllantirish va ta'lim sifatini doimiy yaxshilashga yordam beradi.

X.Xinyan va Q.Xiaodong oliy ta'lim sifatining va ilmiy-tadqiqot faoliyatining hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini empirik tahlil orqali o'rganadi. Ularning fikricha, oliy ta'limning raqobatbardoshligi asosan ta'lim va ilmiy-tadqiqot sifati bilan belgilanadi [4]. Ta'lim sifati oshgan sari malakali kadrlar tayyorlash yaxshilanadi va ilmiy natijalar iqtisodiyotga tezroq tatbiq etiladi. Shu bois, sifatli oliy ta'lim hududiy va milliy miqyosda raqobatbardosh ustunlik beradi va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Mualliflar ilmiy-tadqiqot sifati ta'lim sifatiga qaraganda raqobatbardoshlik va iqtisodiy rivojlanishga kuchliroq ta'sir qilishini alohida ta'kidlaydi.

S.Norboyeva metodik qo'llanmasida talabalar ma'naviy kompetentligini rivojlantirishning oliy ta'limda muhimligini qayd etadi. Muallifning fikricha, ta'lim sifati nafaqat bilim va ko'nikmalar bilan o'lchanadi, balki talabalarning axloqiy, ma'naviy va madaniy kompetentlik darajasi bilan ham belgilanadi [5]. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish faqat akademik ko'rsatkichlar orqali emas, balki talabalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash orqali ham amalga oshiriladi.

B.Usmonov va R.Xabibullayev esa o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil etish orqali ta'lim sifatini oshirishning amaliy mexanizmlarini bayon etadilar. Ularning ta'kidlashicha, kredit-modul tizimi talabalarni mustaqil o'qishga, o'z vaqtini samarali boshqarishga va individual rivojlanishiga rag'batlantiradi [6]. Bu esa oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish va talabalar bilimini milliy va xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qiladi.

N.Zokirova o'z darsligida ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning o'quv jarayonidagi ahamiyatini tahlil qiladi. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim jarayoni interaktiv, samarali va qiziqarli bo'ladi, bu esa talabalar faolligi va o'rganish sifatini sezilarli darajada oshiradi [7]. Shuningdek, J.Xakimov axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi rolini keng yoritib, raqamli platformalar va onlayn resurslarni qo'llash orqali o'quv jarayonini modernizatsiya qilishning ahamiyatini ta'kidlaydi [8].

N.Muslimov va uning hammualliflari innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirishning metodologik asoslarini keltiradilar. Ularning fikriga ko'ra, innovatsion texnologiyalar talabalar mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi, ta'lim jarayonini samarali va interaktiv qiladi hamda oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshiradi [9].

N.Azizxo'jayeva [10] va B.Ziyamuhamedov hamda M.Tojiyev [11] pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratning ta'lim sifatiga ta'sirini batafsil tahlil qiladilar. Ular ta'kidlaganidek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va mahorat o'quv jarayonini optimallashtirish, talabalar faoliyatini monitoring qilish va samarali o'qitish imkonini beradi. Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalarning milliy modelga moslashtirilishi oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim strategik omil sifatida xizmat qiladi.

Mazkur adabiyotlar oliy ta'lim raqobatbardoshligini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilash masalasini har tomonlama yoritadi. Barcha manbalarda ta'kidlanganidek, raqobatbardoshlik va sifat bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, innovatsion texnologiyalar, axborot tizimlari, pedagogik mahorat va talabalarning kompetentlik darajasi orqali ta'minlanadi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalari nafaqat bilim berish markazi, balki ijtimoiy, iqtisodiy va innovatsion rivojlanishga hissa qo'shuvchi muassasa sifatida shakllanishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim raqobatbardoshligining ta'lim sifatini oshirishdagi rolini chuqur tahlil qilish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi oliy ta'lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqishga asoslanib, raqobatbardoshlik va ta'lim sifati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga yo'naltirildi. Jarayonda nazariy manbalarni tahlil qilish orqali raqobatbardoshlik tushunchasining mazmuni va uning ta'lim sifatiga ta'siri yoritildi, shuningdek, milliy va xorijiy tajribalarni taqqoslash asosida oliy ta'lim muassasalarida raqobat muhitining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari o'rganildi. Tadqiqotda ochiq statistik ma'lumotlar, rasmiy hisobotlar va ilmiy nashrlarda keltirilgan axborotlar asosida umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilib, raqobatbardoshlik darajasi bilan ta'lim sifati ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlashga harakat qilindi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinib, tadqiqot natijalarini ilmiy asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun metodologik poydevor yaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda ta'lim sifatining mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri masalasi ilmiy tadqiqotlar va amaliy siyosat darajasida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Globallashtirish, bilimlar iqtisodiyotining shakllanishi



va innovatsion rivojlanish sharoitida oliy ta'lim tizimi milliy iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, oliy ta'limda o'qitish sifati va ilmiy-tadqiqotlar samaradorligi inson kapitalini rivojlantirish, texnologik yangilanishlarni jadallashtirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ta'lim sifati va milliy iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy asosda aniqlash va baholash muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim sifatining milliy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri va hissasini o'rganish uchun takomillashtirilgan C-D modelidan foydalanadi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limda o'qitish va ilmiy tadqiqotlar sifati milliy iqtisodiy rivojlanish bilan ijobiy bog'liqdir va ilmiy tadqiqot sifatining milliy iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissasi o'qitish sifatiga qaraganda kattaroqdir.

Mamlakatda oliy ta'lim sifatini baholash uchun Duglas ishlab chiqarish funksiyasidan oliy ta'lim sifatining milliy iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini o'lchash uchun tadqiqot modeli sifatida foydalaniladi va formulada ko'rsatilganidek, C-D ishlab chiqarish funksiyasini o'lchash modeliga oliy ta'lim sifati (ta'lim sifati va ilmiy tadqiqot sifati) omillarini kiritadi:

$$Y = A K^{\alpha} L^{\beta} \quad (1)$$

Bu formulada Y jami ishlab chiqarishni, A texnologik taraqqiyotni ($A=1$), K kapital kiritish darajasini, indeks α kapital ishlab chiqarishning elastiklik koeffitsientini, L mehnat sarfi darajasini va β mehnat ishlab chiqarishning elastiklik koeffitsiyentini ifodalaydi.

Oliy ta'lim sifatidagi o'qitish sifati ishchi kuchining sifat darajasini bevosita yoki bilvosita o'zgartiradi, shuning uchun formuladagi L mehnat sarfi darajasi L_0 mehnat sarfi miqdori va yilning o'qitish sifati E mahsuloti bilan almashtirilishi mumkin. Oliy ta'limdagi ilmiy tadqiqotlar sifati texnologik taraqqiyotni rag'batlantirishi mumkin bo'lsa-da, texnologik taraqqiyot darajasini ifodalay olmaydi. Shuning uchun bu yerda formula uchun ilmiy tadqiqot sifatini ifodalovchi yangi R o'zgaruvchisi kiritiladi. Shunday qilib, yangi o'lchov modeli (2) olinishi mumkin:

$$Y = A K^{\alpha} L_0^{\beta} E^{\theta} R^{\gamma} \quad (2)$$

C-D ishlab chiqarish funksiyasidan foydalanib, milliy iqtisodiy rivojlanish darajasining oliy ta'lim sifatiga nisbatini hisoblash kerak. Shunday qilib, modelni (3) olish uchun modelning ikkala tomonidagi logarifmlarni olinadi:

$$\ln Y = \alpha \ln K + \beta \ln L_0 + \theta \ln E + \gamma \ln R \quad (3)$$

$\ln Y$ - milliy iqtisodiyotning yillik o'sish sur'ati, $\ln R$ - ilmiy tadqiqot sifatining rivojlanish sur'ati, $\ln K$ - kapital kiritishning yillik o'sish sur'ati, $\ln L_0$ - mehnat sarfining yillik o'sish sur'ati, $\ln E$ - ta'lim sifati bo'yicha yaxshilanish darajasi, α kapital ishlab chiqarishning elastikligini, β esa mehnat ishlab chiqarishning elastikligini, θ o'qitish sifati mahsulotining elastikligini, γ ilmiy tadqiqot sifati mahsulotining elastikligini ifodalaydi.¹

Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi bugungi kunda nafaqat ta'lim tizimining samaradorligi, balki mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Global ta'lim bozorida oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobat kuchayib borayotgani, talabalar va ish beruvchilar talabalarining o'zgaruvchanligi, innovatsion va raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi ta'lim sifati va muassasalar nufuziga ta'sir qilmoqda. Shu sababli oliy ta'lim raqobatbardoshligini oshirish, ta'lim sifatini uzluksiz yaxshilash va talabalar ehtiyojlariga moslashish oliy ta'lim muassasalarining strategik maqsadlaridan biri hisoblanadi. Raqobatbardosh muassasalar o'quv jarayonini takomillashtirish, professor-o'qituvchilar salohiyatini oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini barqaror oshiradi. Shu bilan birga, oliy ta'lim raqobatbardoshligi talabalarining bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish hamda milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Raqobatbardoshlikni oshirish jarayonida ta'lim muassasalari ichki sifat menejmenti tizimini joriy etadi, ta'lim dasturlarini muntazam yangilaydi va talabalarining qoniqishini doimiy baholaydi. Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik va talabalarining akademik mobilligi raqobatbardoshlikni kuchaytiruvchi omillar sifatida xizmat qiladi. Shu tarzda, oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi va ta'lim sifati o'rtasidagi bog'liqlik milliy ta'lim siyosatini shakllantirishda, strategik rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda va global ta'lim maydonida nufuzni oshirishda asosiy rol o'ynaydi.

1 Xinyan Xia, Xiaodong Qiu1. The Impact of the Quality of Higher Education on the Development of Regional Economy – Empirical Analysis Based on Provincial Panel Data // Proceedings of the 7th International Conference on Social Science and Higher Education. 2021



Quyidagi jadvalda oliy ta'lim raqobatbardoshligining ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, ularning natijaviy ko'rsatkichlari va milliy iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanishga qo'shgan hissasini ko'rib chiqamiz (1-jadval):

1-jadval. Oliy ta'lim raqobatbardoshligining ta'lim sifatiga ta'siri²

Asosiy omillar	Ta'lim sifatiga ta'siri	Amaliy natijalar	Milliy iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri
O'quv jarayoni sifati	Ta'lim dasturlari zamonaviy va talabalar ehtiyojiga moslashadi	Bitiruvchilarning bilim va malaka darajasi oshadi	Mehnat bozori talablariga mos yuqori sifatli ishchi kuchi tayyorlanadi
Professor-o'qituvchilar salohiyati	Pedagogik va ilmiy faoliyat samaradorligi oshadi	Talabalar innovatsion fikrlash va amaliy ko'nikmalarni egallaydi	Ilm-fan va innovatsion sektor rivoji rag'batlanadi
Ilmiy-tadqiqot faoliyati	Ta'lim jarayoniga ilmiy natijalar integratsiya qilinadi	Talabalar va o'qituvchilar ilmiy salohiyatini oshiradi	Texnologik yangilanishlar va innovatsiyalar iqtisodiyotga tatbiq etiladi
Innovatsion va raqamli texnologiyalar	Ta'lim jarayoni interaktiv va samarali bo'ladi	Onlayn resurslar, laboratoriyalar va virtual platformalar qo'llaniladi	Innovatsion iqtisodiyot rivoji tezlashadi
Boshqaruv samaradorligi	Ta'lim sifatini monitoring qilish va baholash mexanizmlari takomillashadi	Resurslardan samarali foydalanish, sifat menejmenti kuchayadi	Ta'lim tizimi barqarorligi va strategik rivojlanish ta'minlanadi
Milliy va xalqaro reytinglar	Muassasaning nufuzi oshadi	Talabalar va mutaxassislar tanlovi sifatli bo'ladi	Mamlakatning global raqobatbardoshlik indeksleri yaxshilanadi

Ushbu jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi ta'lim sifatini barqaror oshirishda muhim ahamiyatga ega. O'quv jarayoni sifati ta'lim dasturlarini yangilash, pedagogik metodlarni takomillashtirish va talabalar ehtiyojiga moslashish orqali ta'lim samaradorligini oshiradi. Natijada bitiruvchilarning malaka darajasi oshadi, ularning ishchi kuchi sifatida raqobatbardoshligi kuchayadi va mehnat bozori talablariga moslashadi. Professor-o'qituvchilar salohiyati ta'lim jarayonining sifatini belgilovchi muhim omil bo'lib, pedagogik va ilmiy faoliyatni rivojlantirish orqali talabalar innovatsion fikrlash va amaliy ko'nikmalarni egallash imkoniyatini yaratadi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati ta'lim sifati va raqobatbardoshlikni oshirish bilan birga milliy iqtisodiyot va innovatsion sektor rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ilmiy natijalar texnologik yangilanishlar va innovatsiyalar orqali amaliyotga tatbiq etiladi. Innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish ta'lim jarayonini interaktiv va samarali qiladi, bu esa talabalar o'qishini sifatli qiladi hamda innovatsion iqtisodiyot rivojini rag'batlantiradi. Boshqaruv samaradorligi ta'lim tizimining monitoringi, baholash mexanizmlari va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi, ta'lim sifatini uzluksiz oshirishga xizmat qiladi.

Milliy va xalqaro reytinglar muassasalarining nufuzini oshiradi, talabalar va mutaxassislar tanlovini sifatli qiladi, shuningdek, mamlakatning global raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini yaxshilaydi. Shu tariqa, oliy ta'lim raqobatbardoshligini oshirish orqali ta'lim sifati nafaqat individual muassasa darajasida, balki milliy iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanish darajasida sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon tizimli va integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi, bunda o'quv jarayoni sifati, ilmiy-tadqiqot salohiyati, innovatsion texnologiyalar va boshqaruv mexanizmlari birgalikda rivojlantiriladi. Shu asosda, oliy ta'lim raqobatbardoshligini oshirish ta'lim sifatini barqaror rivojlantirish va milliy taraqqiyotga hissa qo'shishda muhim strategik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi ta'lim sifatini oshirishning eng muhim omili hisoblanadi. O'quv jarayoni sifati, professor-o'qituvchilar salohiyati, ilmiy-tadqiqot faoliyati va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Boshqaruv samaradorligi va monitoring tizimlari ta'lim sifatini doimiy ravishda yaxshilashga yordam beradi, milliy va xalqaro reytinglar esa oliy ta'lim muassasalarining nufuzini oshiradi.

Biz yuqorida ko'rib chiqqan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatining oshishi nafaqat talabalar bilim darajasiga, balki ularning ishchi kuchi sifatida raqobatbardoshligiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat esa milliy iqtisodiyotning texnologik yangilanishlari va innovatsion rivojiga hissa qo'shadi. Shu tariqa, oliy ta'lim raqobatbardoshligini oshirish orqali ta'lim tizimi barqaror va sifatli rivojlanadi, talabalar va mutaxassislarning raqobatbardoshligi oshadi va milliy taraqqiyotga sezilarli hissa qo'shiladi. Shu asosda, oliy ta'lim muassasalari sifat menejmenti, ilmiy faoliyatni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish

2 Muallif tomonidan tayyorlangan



orqali ta'lim sifatini yanada oshirishga e'tibor qaratishi zarur. Bu nafaqat muassasalar nufuzini oshiradi, balki mamlakatning global ta'lim maydonidagi raqobatbardoshligini ham mustahkamlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytdigan bo'lsak, oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish ta'lim sifatini barqaror rivojlantirish va milliy iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shishning muhim omili hisoblanadi. Mazkur maqolada oliy ta'lim raqobatbardoshligini shakllantirish, ta'lim jarayonini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, raqobatbardosh oliy ta'lim muassasalari talabalar va professor-o'qituvchilar faoliyatini samarali tashkil etish, innovatsion va ilmiy salohiyatni rivojlantirish orqali o'z bitiruvchilarining raqobatbardoshligini oshiradi va bu esa o'z navbatida milliy iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mavzuga doir o'rganilgan nazariy yondashuvlar va amalga oshirilgan tahlillar asosida quyidagi takliflarni shakllantirdik:

- raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan yagona metodologik yondashuvni ishlab chiqish. Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini baholash va ta'lim sifatini monitoring qilish uchun milliy va xalqaro standartlarga mos indikatorlar tizimi yaratish lozim;
- ta'lim sifati va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga oid ma'lumotlar bazasini kengaytirish. Oliy ta'lim muassasalarida va davlat statistik tizimida ta'lim sifati, ilmiy natijalar va innovatsion faoliyat bo'yicha ma'lumotlarni tizimli to'plash va ochiq formatda taqdim etish zarur;
- kompleks baholash yondashuvini joriy etish. Ta'lim sifati, ilmiy-tadqiqot salohiyati va raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini birgalikda tahlil qiluvchi ko'p omilli baholash metodlarini ishlab chiqish va tatbiq etish tavsiya etiladi;
- xalqaro tajribalarni o'rganish va lokal sharoitga moslashtirish. Yirik xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan indikatorlar va baholash modellari asosida mahalliy sharoitga mos metodologiyalarni tatbiq etish samarali bo'ladi;
- raqamli texnologiyalarni keng joriy etish. Big Data, sun'iy intellekt va iqtisodiy-matematik modellar orqali ta'lim sifati va raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini aniq, tez va ishonchli baholash mumkin;
- professor-o'qituvchilar va talabalar faoliyatini rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish. Ta'lim va ilmiy-tadqiqot sifatini oshirishga yo'naltirilgan rag'batlantirish tizimi ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi;
- innovatsion ta'lim muhitini yaratish. Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, laboratoriyalar va ilmiy markazlarni rivojlantirish orqali ta'lim sifatini barqaror oshirish mumkin.

Umumiy qilib aytdigan bo'lsak, oliy ta'lim raqobatbardoshligini ta'lim sifatini oshirishning asosiy vositasi sifatida qarash, tizimli yondashuvni amalga oshirish va xalqaro hamda milliy standartlarga mos metodlarni joriy etish milliy ta'lim tizimi va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha metodologiyalarni takomillashtirish va ularni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasining rasmiy sayti
2. Борщевский, Г.А. Государственно-частное партнерство : учебник и практикум для вузов / Г. А. Борщевский. - 4-е изд., перераб. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2024. - 314 с.
3. Шеров Ж.Э., Нормоматов Х.М. АВТОМАТИЗАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ. In: Инновации в технологиях и образовании. 2015. pp. 178-182.
4. Xinyan X., Xiaodong Q. The Impact of the Quality of Higher Education on the Development of Regional Economy – Empirical Analysis Based on Provincial Panel Data // Proceedings of the 7th International Conference on Social Science and Higher Education (ICSSHE 2021), Advances in Social Science, Education and Humanities Research, vol. 598, Atlantis Press, 2021.
5. Norboyeva S. Talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish (metodik qo'llanma). – Termiz, 2021. – 200 b.
6. Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. – T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2020.
7. Zokirova N.K. "Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish" darslik, - M: Toshkent–2018. b – 201.
8. Xakimov J.O. Ta'limda axborot texnologiyalari. Darslik. – T.: "Shamsuddinxon Boboxonov" NMIU, 2022. – 274 b.
9. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 70-81-b.
10. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T., 2016. – 160 b.
11. Ziyamuhammedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya zamonaviy o'zbek milliy modeli. – T., 2019. – 55-104-b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>